

# Quality Control And Monitoring System In Preschool Education Management In The Singapore Experience

**Yakubova Dilnoza Zokirjonovna**

Director of the 11th State Preschool Education Organization of the Uzbek district  
[dilnozayakubova38@gmail.com](mailto:dilnozayakubova38@gmail.com)

## Annotation

This article analyzes the experience of organizing a quality control and monitoring system in the management of preschool education in the Republic of Singapore. In the course of the research, the SPARK (Singapore Preschool Accreditation System) system and the Quality Rating Scale (QRS) criteria introduced by the Singapore Ministry of Education and the Early Childhood Development Agency were studied. According to data, as of 2025, 867 preschool educational institutions in Singapore had SPARK certificates, 152 of which received the high level of "Commendation". This system ensures continuous development through regular monitoring of the quality of children's education, assessment of the qualifications of educators, and expansion of parental participation. The results of the study show that adapting the Singapore model to the Uzbek preschool education system allows for quality improvement, digitalization of management, and improvement of accreditation mechanisms.

**Keywords:** Singapore experience, preschool education, quality control, monitoring system, SPARK, QRS, management.

## Annotatsiya

Ushbu maqolada Sinqapur Respublikasida muktabgacha ta'limni boshqarishda sifat nazorati va monitoring tizimini tashkil etish tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida Sinqapur Ta'lim vazirligi va Erta bolalikni rivojlantirish agentligi tomonidan joriy etilgan SPARK (Sinqapur muktabgacha ta'lim akkreditatsiya tizimi) tizimi va sifatni baholash shkalasi (QRS) mezonlari o'rGANildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil holatiga ko'ra Sinqapurdagi 867 ta muktabgacha ta'lim muassasasi SPARK sertifikatiga ega bo'lib, ularning 152 tasi yuqori darajadagi "Commendation" bahosini olgan. Ushbu tizim bolalar ta'limi sifatini muntazam monitoring qilish, tarbiyachilar malakasini baholash hamda ota-onalar ishtirokini kengaytirish orqali uzlusiz rivojlanishni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari Sinqapur modelini O'zbekiston muktabgacha ta'lim tizimiga moslashtirish orqali sifatni oshirish, boshqaruvni raqamlashtirish va akkreditatsiya mexanizmlarini takomillashtirish imkonini berishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Sinqapur tajribasi, muktabgacha ta'lim, sifat nazorati, monitoring tizimi, SPARK, QRS, boshqaruv.

## KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining har bir bosqichi inson kapitalini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, muktabgacha ta'lim bosqichi bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu sababli ko'plab mamlakatlar ushbu tizimda sifatni oshirish, samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratish va uzlusiz monitoring tizimini yo'lga qo'yish borasida

izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu borada Sinqapur Respublikasi tajribasi dunyoda eng ilg'or modellar qatorida e'tirof etiladi.

Sinqapurdagi muktabgacha ta'lim tizimi Erta bolalikni rivojlantirish agentligi (ECDA) tomonidan boshqariladi. Ushbu agentlik 2013-yilda Ta'lim vazirligi (MOE) va Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligi (MSF) hamkorligida tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari muktabgacha ta'lim

muassasalarini litsenziyalash, pedagoglarning malakasini oshirish, sifat monitoringini yuritish hamda ota-onalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lism sifatini baholash va nazorat qilish maqsadida 2011-yilda ECDA tomonidan SPARK tizimi joriy qilingan. Bu tizim orqali har bir maktabgacha ta'lism muassasasi o'z faoliyatini sifatni baholash shkalasi (QRS) mezonlari asosida o'zini baholash va tashqi baholash jarayonlaridan o'tkazadi. QRS sakkizta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: rahbarlik, rejalashtirish va ma'muriy boshqaruv, xodimlar salohiyati, ta'lim muhiti, erta rivojlanish va o'qitish jarayoni, resurslardan foydalanish, o'quv dasturi va pedagogika, hamkorlik hamda jamoatchilik bilan aloqlar.

ECDA ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil holatiga kelib 867 ta maktabgacha ta'lism muassasasi SPARK sertifikatiga ega, shundan 152 tasi "SPARK Commendation" darajasini olgan. Bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 12 foizga o'sdi. Ushbu natijalar Sinqapurda maktabgacha ta'lim sifati va boshqaruvining yuqori darajada institutsional asosda yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi. Shuningdek, hukumat tomonidan 2025-yilgacha maktabgacha yoshdag'i bolalarning 80 foizini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan preschool muassasalari bilan qamrab olish maqsadi belgilangan.

SPARK tizimining muhim jihatlaridan biri — bu davlat va xususiy sektor o'rtafigi barqaror hamkorlikdir. Maktabgacha ta'lism muassasalarining 65–70 foizi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "Anchor Operator" (AOP) va "Partner Operator" (POP) tarmoqlariga kiradi. Ushbu muassasalarda o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv muhitini zamonaviylashtirish va ota-onalar uchun to'lovlarini kamaytirish bo'yicha davlat subsidiyalari taqdim etiladi. 2025-yildan boshlab esa SPARK 2.0 nomli yangi akkreditatsiya tizimi bosqichma-

bosqich joriy etilmoqda. Uning maqsadi — mavjud QRS tizimidagi sakkizta mezonni beshta integratsiyalashgan yo'nalishga qisqartirish, bolaga yo'naltirilgan sifat baholashni kuchaytirish va muassasalar uchun "reflektiv amaliyot" (o'z faoliyatini tahlil qilib, doimiy takomillashtirish) madaniyatini shakllantirishdir.

Shunday qilib, Sinqapur tajribasi maktabgacha ta'limga boshqarishda davlat siyosati, raqamli nazorat, professional akkreditatsiya va jamoatchilik ishtirokini birlashtirgan mukammal model sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimning asosiy ustunligi — sifat nazorati va monitoring jarayonlarini shunchaki tekshiruv emas, balki o'rganish, rivojlantirish va tajriba almashish vositasi sifatida tashkil etilishidadir. Aynan shu jihatlar Sinqapur maktabgacha ta'lim tizimini global miqyosda barqaror va innovatsion modelga aylantirgan.

## **METODLAR**

Ushbu tadqiqotda Sinqapur tajribasida maktabgacha ta'limga boshqarishda sifat nazorati va monitoring tizimini o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash usullari tashkil etdi.

1. Taqqoslama tahlil metodi. Tadqiqot davomida Sinqapur va O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimlari o'rtasida boshqaruv, sifat nazorati va monitoring mexanizmlari solishtirildi. Bu jarayonda Sinqapurda qo'llanilayotgan SPARK va Sifatni baholash shkalasi (QRS) mezonlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan joriy etilgan "Ilk qadam" davlat dasturi hamda ta'lim sifatini baholash reglamenti bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali ikki mamlakatda sifat nazorati va akkreditatsiya yondashuvlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlab chiqildi.

2. Huquqiy hujjatlar tahlili. Tadqiqotda Singapur Ta'lif vazirligi (MOE) va Erta bolalikni rivojlantirish agentligi (ECDA) tomonidan qabul qilingan rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar, xususan:

–SPARK Accreditation Framework Guidelines (2019);

–SPARK 2.0 Implementation Paper (2025);

–Quality Rating Scale (QRS) Handbook for 0–6 Years (2019);

– Early Childhood Development Centres Regulations (2022) hujjatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-dekabrdagi PQ–2707-son “Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ham solishtirma tahlil jarayonida o'rganildi.

3. Statistik tahlil metodi. Singapurdagi maktabgacha ta'lif sifati bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan raqamli ma'lumotlar asosida empirik tahlil o'tkazildi. Jumladan:

– OECD (2023) tomonidan chop etilgan “Early Childhood Education and Care Policy Review: Singapore” hisobotidagi ko'rsatkichlar;

– UNESCO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, Singapurda 3–6 yoshdagi bolalarning ta'lif bilan qamrovi 95 foizni tashkil etgani;

– ECDA (2025) statistik hisobotlariga binoan, 867 ta preschool markaz SPARK sertifikatiga ega ekani;

– hamda Singapur hukumati (gov.sg) tomonidan e'lon qilingan “Preschool Access and Affordability Review” (2024) ma'lumotlari tahlil qilindi.

4. Analitik yondashuv va umumlashtirish. Olingan natijalar asosida Singapur tajribasining asosiy komponentlari tizimli tarzda tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari aniqlashtirildi. Bunda sifat nazorati va monitoring tizimining konseptual asoslari — akkreditatsiya, o'zini baholash, tashqi audit, raqamli monitoring va professional

rivojlanish indikatorlari — o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Singapurda maktabgacha ta'lif sifatini boshqarish tizimi chuqur institutsional asosda shakllangan bo'lib, u davlat siyosati, akkreditatsiya mexanizmlari, pedagogik malaka tizimi va jamoatchilik nazorati o'rtaсидagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Quyida ushbu tizimning asosiy natijalari va xususiyatlari keltiriladi:

1. SPARK akkreditatsiya tizimi. Singapurda har bir maktabgacha ta'lif muassasasi SPARK (Singapore Preschool Accreditation Framework) tizimi asosida baholanadi. Baholash jarayoni har 3 yilda bir marotaba amalga oshiriladi va u ikki bosqichdan iborat:

– o'zini baholash (self-appraisal) – muassasa rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi;

– tashqi baholash (external validation) – ECDA tomonidan tayinlangan ekspertlar tomonidan o'tkaziladi.

SPARK tizimi 2019-yilda yangilangan Quality Rating Scale (QRS) asosida faoliyat yuritadi. ECDA (2025) ma'lumotlariga ko'ra, 867 ta maktabgacha ta'lif markazi SPARK sertifikatiga ega, shundan 152 tasi “SPARK Commendation” darajasiga ega bo'lgan. Bu 2019-yildagi 951 ta markazning 45 foiziga nisbatan yuqori sifatli akkreditatsiyani anglatadi.

2. Monitoring va o'zini baholash tizimi. Sifatni nazorat qilishda Pedagoglarning kasbiy salohiyatini baholash tizimi (PCF) muhim rol o'ynaydi. U tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini muntazam kuzatish, baholash va rivojlanirish uchun ishlab chiqilgan. ECDA talabiga ko'ra, har bir pedagog kamida yiliga bir marotaba malaka oshirish kursida qatnashadi va o'z faoliyati bo'yicha professional self-reflection hisobotini topshiradi. Natijada, 2024-yil yakunida Singapurdagi maktabgacha ta'lif pedagoglarning 98 foizi malaka oshirish

kurslaridan o'tgan, 82 foizi esa maktabgacha ta'limga ta'limi bo'yicha diplom (DECCE) darajasiga ega bo'lgan.

3. Ota-onalar ishtiroki. Sifat nazoratining muhim komponenti — ota-onalar fikrlarini inobatga olish tizimi. ECDA tomonidan har yili o'tkaziladigan Ota-onalar mammunligini aniqlash so'rovi natijalariga ko'ra, 2023-yilda ota-onalarning 93 foizi farzandlari ta'limga sifati va xavfsizlik muhitidan yuqori darajada mammun ekanini bildirgan. Ushbu ma'lumotlar SPARK baholash jarayonida "Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik" mezoni orqali inobatga olinadi.

4. Raqamli monitoring va ochiqlik tizimi. Barcha maktabgacha ta'limga muassasalar faoliyati maktabgacha ta'limga muassasalarining faoliyatini ruxsat berish tizimi orqali raqamli tarzda nazorat qilinadi. Ushbu platforma orqali muassasalar o'z hisobotlarini topshiradi, o'qituvchilar faoliyati qayd etiladi hamda akkreditatsiya jarayonlari onlayn tarzda kuzatib boriladi. Bu tizim ochiqlik tamoyilini ta'minlab, jamoatchilik uchun ham muassasalar reytingini ko'rish imkonini beradi.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy natijalar. Sinqapur hukumati 2025-yilga kelib maktabgacha yoshdagagi bolalarning 80 foizini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan preschool markazlari bilan qamrab olishni maqsad qilgan. 2024-yil yakunida esa bu ko'rsatkich 72 foizga yetgan (gov.sg, 2024). Maktabgacha yoshdagagi bolalarning umumiyligi ta'limga bilan qamrovi esa 95 foizdan ortiqni tashkil etmoqda.

Shuningdek, 2023–2024-yillarda maktabgacha ta'limga sohasida ishlovchi pedagoglar soni 22 mingdan oshgan, ulardan ayollar ulushi 97 foiz, o'rtacha ish staji esa 7,3 yilni tashkil etgan (ECDA Annual Report, 2024).

Shunday qilib, tadqiqot natijalari Sinqapurda maktabgacha ta'limga sifatini nazorat qilish tizimi kompleks yondashuv asosida tashkil etilganini ko'rsatadi. SPARK akkreditatsiya tizimi, raqamli monitoring

platformalari, professional rivojlanish mexanizmlari va jamoatchilik ishtiroki bu tizimning barqarorligini ta'minlaydi. Natijada, Sinqapurda maktabgacha ta'limga sifati xalqaro mezonlarga mos darajada yuqori, pedagoglar malakasi va bolalar qamrovi esa doimiy o'sib bormoqda.

### **Jadval 1. Sinqapurda maktabgacha ta'limga sifati va monitoring tizimi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (2024–2025)**

№	KO'RSATKICH NOMI	MAZMUNI / IZOH	MANBA (YIL)
1	<b>SPARK akkreditatsiya tizimi</b>	867 ta maktabgacha ta'limga muassasasi SPARK (Sinqapur maktabgacha ta'limga akkreditatsiya tizimi) sertifikatiga ega bo'lib, ularning 152 tasi "Yuqori baholangan" (Commendation) darajasida.	ECDA, 2025
2	<b>Baholash davriyigli</b>	Har bir maktabgacha ta'limga markazi har 3 yilda bir marta o'zini baholash va tashqi baholash jarayonlaridan o'tadi.	SPARK QRS, 2019
3	<b>Pedagoglarning malaka darajasi</b>	O'qituvchilarning 98 foizi malaka oshirish kurslarida qatnashgan, 82 foizi esa "Erta bolalik ta'limga bo'yicha diplom" (DECCE) darajasiga ega.	ECDA yillik hisobot, 2024
4	<b>Ota-onalar qoniqish darajasi</b>	Ota-onalarning 93 foizi maktabgacha ta'limga sifati va xavfsizlik sharoitlaridan mammun ekanini bildirgan.	ECDA "Ota-onalar qoniqish so'rovi", 2023
5	<b>Bolalar ta'limga bilan qamrovi</b>	3–6 yoshdagagi bolalarning 95 foizi maktabgacha ta'limga dasturlari bilan qamrab olingan.	YuNESKO, 2022
6	<b>Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan markazlar ulushi</b>	Maktabgacha ta'limga muassasalarining 72 foizi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi (2025-yilda bu ko'rsatkichni 80 foizga yetkazish rejalashtirilgan).	Sinqapur hukumati rasmiy portalı, 2024
7	<b>Raqamli monitoring tizimi</b>	Barcha ma'lumotlar ECDA litsenziyalash portali orqali	ECDA, 2024

		elektron tarzda yuritiladi va ochiqlik tamoyiliga amal qilinadi.
8	<b>Pedagoglar soni</b>	22 mingdan ortiq pedagog faoliyat yuritadi, ularning 97 foizi ayollar.
9	<b>SPARK 2.0 tizimi</b>	2025-yildan boshlab yangi, besh yo'nalishli akkreditatsiya tizimi – SPARK 2.0 joriy etilmoqda.

## MUHOKAMA

O'zbekiston uchun Sinqapur tajribasining dolzarbli shundaki, u maktabgacha ta'lif sohasida sifat nazorati va monitoring tizimini markazlashtirilmagan, ammo samarali boshqaruv modeli sifatida namoyon etadi. Sinqapurda maktabgacha ta'lif muassasalarini davlat va xususiy sektor hamkorligida faoliyat yuritadi, biroq sifatni nazorat qilish yagona ECDA tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bu yondashuv har bir muassasaga o'zining tashkiliy erkinligini saqlagan holda, davlat tomonidan belgilangan sifat standartlariga rioya etish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida bunday tizimni joriy etish maktabgacha ta'lif sifatini muntazam va aniq baholash imkoniyatini kengaytiradi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tomonidan "Ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar ta'lif-tarbiyasining davlat standarti" (2022) asosida sifat nazorati amalga oshirilmoqda, biroq bu tizim ko'proq ma'muriy hisobot shaklida bo'lib, samaradorlikni baholash va muassasalar reytingini aniqlashga to'liq yo'naltirilmagan. Sinqapurdagi SPARK akkreditatsiya tizimi O'zbekiston uchun quyidagi jihatlar bo'yicha amaliy ahamiyat kasb etadi:

1. Ta'lif sifatini barqaror nazorat qilish. SPARK tizimi har bir maktabgacha ta'lif muassasasining sifat ko'rsatkichlarini 3 yilda bir marta mustaqil ekspertlar ishtirokida baholaydi. Shunga o'xhash tizim O'zbekistonda ham joriy etilsa,

muassasalar o'rtaida sog'lom raqobatni shakllantiradi va sifatni doimiy oshirishga turki bo'лади.

2. Tarbiyachilar malakasini baholashni avtomatlashtirish. Sinqapurda pedagoglarning kasbiy rivoji Pedagoglarning kasbiy salohiyatini baholash va rivojlantirish tizimi(PCF) orqali raqamli platformalarda kuzatib boriladi. O'zbekiston uchun bu tajriba muhim, chunki mamlakatda 2024-yil holatiga ko'ra 120 mingdan ortiq maktabgacha ta'lif xodimlari faoliyat yuritadi, ammo ularning kasbiy malakasini yagona elektron tizimda baholash mexanizmi hali to'liq yo'lga qo'yilmagan.

3. Ota-onalar ishtirokini kuchaytirish. Sinqapurda ota-onalar fikri har yili o'tkaziladigan Ota-onalar mammunligini aniqlash so'roviorqali o'rganiladi va bu natijalar sifat baholashda hisobga olinadi. O'zbekistonda ham ota-onalar fikrini tahlil qiluvchi elektron so'rov tizimlarini yaratish orqali maktabgacha ta'lif muassasalarining ochiqligini ta'minlash mumkin.

Biroq, ushbu modelni to'liq tatbiq etish uchun bir qator tayyorgarlik bosqichlari zarur:

- normativ-huquqiy bazani xalqaro mezonlarga mos ravishda takomillashtirish;
- raqamli infratuzilmani kengaytirish, barcha bog'chalarni yagona elektron tizimga ulash;
- pedagoglarni SPARK kabi akkreditatsiya tizimi talablariga tayyorlash;
- sifat baholashda mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Shunday qilib, Sinqapur tajribasi O'zbekiston uchun innovatsion boshqaruv modeli sifatida katta ahamiyatga ega. U nafaqat nazorat va monitoring jarayonlarini tizimlashtirishga, balki maktabgacha ta'lif muassasalarini o'zaro raqobatbardosh va shaffof tizim asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Sinqapur tajribasi mактабгача та'limda sifat nazorati va monitoring tizimini shakllantirishda dunyoda eng samarali modellaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimning muvaffaqiyati, avvalo, aniq baholash mezonlari, raqamli nazorat mexanizmlari, pedagoglar malakasini uzluksiz oshirish va ota-onalar ishtirokini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanganidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, Sinqapurda joriy etilgan SPARK akkreditatsiya tizimi va Pedagoglarning kasbiy salohiyatini baholash va rivojlantirish tizimimaktabgacha ta'lim sifatini kompleks tarzda baholash, shuningdek, muassasalar faoliyatini shaffof va raqamli asosda boshqarish imkonini beradi. Natijada, mamlakatda 3–6 yoshli bolalarning 95 foizi sifatli maktabgacha ta'lim dasturlari bilan qamrab olingan, pedagoglarning 98 foizi malaka oshirish tizimida muntazam ishtirok etmoqda.

O'zbekiston sharoitida ushbu tajribani moslashtirish orqali quyidagi natjalarga erishish mumkin:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida sifat nazoratining yagona milliy tizimini yaratish;
- pedagoglar faoliyatini raqamli monitoring asosida baholash va rivojlantirish;
- ota-onalar ishtirokini kuchaytirish orqali ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlash;
- hududiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish orqali ta'limda teng imkoniyatlar yaratish.

Shunday qilib, Sinqapur modeli O'zbekiston uchun amaliy jihatdan qo'llanishi mumkin bo'lgan innovatsion yo'nalish bo'lib, u maktabgacha ta'lim sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va bolalar rivojlanishi uchun optimal sharoitlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar (References)**

Ministry of Education Singapore. SPARK Accreditation Framework. Singapore, 2022.

OECD (2023). Early Childhood Education and Care Policy Review: Singapore.

UNESCO (2022). Monitoring Quality in Early Childhood Education.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2707-son qarori, 2017-yil 30-dekabr.

Karimova N. (2023). Maktabgacha ta'limda sifat monitoringi mexanizmlari. Toshkent: TDPU.

Nigoraxon, A., & Bibirobiya, U. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH. University Research Base, 72-75.

Abduraxmonova, N. (2022). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI.

Science and innovation, 1(B8), 2114-2121. Abduraxmonova, N. A. (2025). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARING ROLI. Inter education & global study, (1 (1)), 15-21.

Nigoraxon, A. (2024). IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING INDIVIDUAL-SHAXSIY SIFATLARI. University Research Base, 55-58.